
**TEKNOLOGIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA INNOVATSION
IMKONIYATLAR****Jo'rayeva Baxtiniso Akbarovna***E-mail: jorayevabaxtiniso9299@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 07.10.2025**Revised: 08.10.2025**Accepted: 09.10.2025***KALIT SO'ZLAR:***texnologiya ta'limi,
pedagogik yondashuv,
innovatsiya, kreativlik,
kompetensiya, amaliy
ko'nikma...**Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maktab ta'limida texnologiya fanining ahamiyati, uning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlari, shuningdek, zamonaviy metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada adabiyotlar tahlili orqali o'zbek va xorijiy olimlarning tadqiqotlari solishtirilib, mualliflik yondashuvi taklif qilingan. erishish zarurligini asoslaydi.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu jarayonda texnologiya fani nafaqat kasbiy-amaliy ko'nikmalarni berish, balki kreativ fikrlash, muammolarni yechish va innovatsion yondashuvlarni egallashga yo'naltiruvchi muhim o'quv predmeti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablarida texnologiya fanining innovatsion asoslarda o'qitilishi alohida ta'kidlanmoqda. Shu bois ushbu maqola texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion imkoniyatlarni chuqur tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish — shaxsni har tomonlama yetuk, tafakkuri keng va mustaqil fikrlay oladigan inson sifatida

shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Bugungi kunda dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, kreativ fikrlash va texnologik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, texnologiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning amaliy faoliyatini, ixtirochilik qobiliyatini va ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun muhim maydon hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi o'quvchilarni nafaqat mehnat jarayoniga, balki hayotiy muammolarni nostandart yondashuv bilan hal qilishga, yangilik yaratishga, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga o'rgatadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar esa bu jarayonni yanada erkin, qiziqarli va samarali shaklda amalga oshirish imkonini beradi. Chunki bunday faoliyatda o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos loyihalarni tanlaydi, ijodiy g'oyalarini ro'yobga chiqaradi, mustaqil qarorlar qabul qilishni o'rganadi.

Hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va ta'limni individuallashtirish tamoyillari asosiy o'rinda turadi. Shu sababli, har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish zarur. Texnologiya darslarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish o'quvchini faqat bir fan doirasida emas, balki turli sohalarda yangilik yaratishga, ilmiy-texnik tafakkurini kengaytirishga yo'naltiradi.

Shuningdek, texnologiya fani — fan, san'at, dizayn, muhandislik va amaliyotning uzviy uyg'unlashuvini ta'minlaydigan yo'nalish sifatida o'quvchilarni ijtimoiy faol, yangilikka intiluvchan va kasbiy jihatdan tayyor shaxslar etib tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan, "texnologiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini hisobga olish" masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim islohotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida alohida o'rin tutadi.

Kozlova G.E. o'zining "Loyiha usulini rivojlanish vositasi sifatida texnologiya darslarida qo'llash" nomli asarida loyiha asosida o'qitish metodining o'quvchilarda mustaqillik, ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni haqida to'xtaladi. Muallifning fikricha, loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun eng samarali shakllardan biridir.

B. Imanovning tadqiqotlarida esa ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda darsning tuzilishi, o'qitish metodlari va o'quv faoliyati turlarining o'zaro bog'liqligi muhim

omil sifatida tahlil qilingan. Ayniqsa, muallif sinfdan tashqari mashg'ulotlarni dars jarayonining mantiqiy davomi sifatida ko'rib chiqadi va ularni talabalarning ijodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi mustaqil platforma deb baholaydi.

B. Imanov va M. Imanovanning "Dars tuzilishi va unga tayyorgarlik" nomli ishida texnologiya darslariga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ijodiy salohiyatini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Ularning ta'kidlashicha, darsdan tashqari mashg'ulotlar ijodiy o'quv faoliyatining uzviy davomi sifatida, nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lashning samarali yo'lidir.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogika va psixologiya sohasidagi ko'plab manbalarda (masalan, J. Gilford, E. Torrens, V. Shtern, N. Ro'ziev, S. Nishonova va boshqalar) ijodiy tafakkur, divergent fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish nazariy asoslari keng yoritilgan.

Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun faqat dars bilan cheklanmasdan, ularning individual qobiliyatlarini sinfdan tashqari faoliyat orqali ham ochib berish zarur.

Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar asosida shuni aytish mumkinki, texnologiya darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish — o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni innovatsion fikrlashga, amaliy faoliyatga tayyorlash va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Asosiy qism

1. Ijodiy salohiyat tushunchasi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni

Ijodiy salohiyat — bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangicha shaklda qo'llash va nostandart yechimlarni topish qobiliyatidir. Pedagogik nuqtai nazardan, ijodiy salohiyat o'quvchining bilish jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlash, yangilik yaratish istagi va o'z imkoniyatlarini amaliyotda sinab ko'rish orqali shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlarida ham o'quvchilarda ijodiy tafakkur va tashabbuskorlikni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu sababli, texnologiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlarini inobatga olish, ularning qiziqishlariga mos faoliyatni tashkil etish zarur.

2. Texnologiya fanining ijodiy imkoniyatlari

Texnologiya fani o'z mohiyatiga ko'ra amaliy va ijodiy yo'nalishga ega. Bu fan o'quvchilarga "bilim – ko'nikma – amaliy faoliyat – ijod" tizimini bosqichma-bosqich

o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar texnologiya darslarida loyihalash, modellashtirish, dizayn elementlarini ishlab chiqish, tikuvchilik, pazandachilik, yog'och va metall bilan ishlash kabi faoliyat turlarida qatnashib, o'z g'oyalarini real mahsulotga aylantiradilar.

Texnologiya darslarida "loyiha metodi", "muammoli vaziyatlar asosida o'qitish", "ijodiy topshiriqlar orqali o'rganish" kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tashabbusni kuchaytiradi. Shuningdek, bu fan orqali o'quvchilar mehnat madaniyati, estetika, aniqlik va mas'uliyat kabi fazilatlarni egallaydilar.

3. Sinfdan tashqari ishlarning o'quvchi ijodkorligini rivojlantirishdagi o'rni

Sinfdan tashqari ishlar o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish va ijodiy faoliyatda qo'llashga xizmat qiladi. Texnologiya fanida bu jarayon quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Loyihaviy ishlar va ijodiy tanlovlar (masalan, "Eng yaxshi dizayner", "Yilning innovatori");

To'garak mashg'ulotlari (tikuvchilik, kulolchilik, robototexnika, pazandachilik, dekorativ san'at);

Amaliy ko'rgazmalar va yarmarkalar (o'quvchilar tayyorlagan mahsulotlarni namoyish etish);

Mahorat darslari (ustalar, dizaynerlar, texnik mutaxassislar ishtirokida);

Ijodiy loyihalarni himoya qilish (o'quvchi o'z g'oyasini taqdim etadi va natijasini namoyish etadi).

Bunday faoliyat o'quvchiga o'z ijodiy qobiliyatini erkin ifoda etish, mustaqil qaror qabul qilish, amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va o'z mehnatining natijasidan mamnun bo'lish imkonini beradi.

4. Ijodiy faoliyatni rag'batlantirishda o'qituvchining roli

Texnologiya fani o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'l boshlovchi, ijodiy muhit yaratuvchi va motivator bo'lishi lozim. U o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlab, ularga mos individual yondashuvni qo'llashi kerak.

Ijodiy faoliyatni rag'batlantirishda quyidagi pedagogik tamoyillar muhim:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv — har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatini inobatga olish;

Faol ishtirok tamoyili — o'quvchini faol, mas'uliyatli ijodkor sifatida shakllantirish;

Hamkorlikda o'qitish — guruhiiy loyihalar orqali jamoaviy tafakkurni rivojlantirish;

Innovatsion muhit yaratish — yangi texnologiyalar, raqamli vositalar, zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanish.

O'qituvchi bu jarayonda tashkilotchi, maslahatchi, kuzatuvchi va motivator sifatida ishtirok etadi. U o'quvchilarda ijodiy ishtiyoqni yo'qotmaslik, ularni doimiy rag'batlantirish va ijobiy natijalarni qadrlash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi.

5. Sinfidan tashqari ishlarining natijaviyligi va amaliy ahamiyati

Ijodiy faoliyatni hisobga olgan holda tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar natijasida:

o'quvchilarda ijodiy fikrlash, yangilikka intilish, muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalari shakllanadi;

kasbiy yo'nalishni tanlashga qiziqish ortadi;

jamoada ishlash, muloqot madaniyati va estetik did rivojlanadi;

o'quvchilarning o'ziga ishonchi mustahkamlanadi.

Xulosa va tavsiyalar:

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi *xulosalarga* kelindi:

1. Texnologiya fani o'quvchilarda kreativlik va innovatsion tafakkurni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

2. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchini faol sub'ekt sifatida shakllantiradi.

3. Innovatsion metodlar, xususan, STEM, loyiha asosida ta'lim va raqamli texnologiyalar o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi *tavsiyalar* berildi:

1. Maktab o'qituvchilari dars jarayonida interaktiv va innovatsion usullardan keng foydalanishlari lozim.

2. Texnologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali ta'limni yanada samarali tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. O'quv dasturlarini zamonaviy ishlab chiqarish va mehnat bozoriga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. To‘xtayev M., Xodjayeva D. Texnologiya ta’limi metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2019.
3. Ashurov U. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: SamDU, 2021.
4. B.Imanov (2003) „Ta’lim sifatiga ta’sir qilmaydigan dars tarkibidagi o‘zgarish” Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali (2-qism) 26-31.
- 5..Imanov (2002) „O‘qitish sifatini oshirishda dars tuzilishingni o‘zaro bog‘liqligi” Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali 803-807.

